



MUALLIFLIK HUQUQLARINI HIMOYA QILISH SOHASIDA HAMKORLIKNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Bahromov Lazizjon Azizjon o'g'li

Toshkent tumani 9-IDUM huquq fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mualliflik huquqlarini himoya qilish borasida hamkorlikning ahamiyati, uning tarixiy rivojlanishi hamda ustuvor yo'nalishlari haqida ma'lumotlar va fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mualliflik huquq, intellektual mulk, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti.

Annotation. This article provides information and opinions on the importance of cooperation in the protection of copyright, its historical development and priorities.

Key words: copyright, intellectual property, World Intellectual Property Organization.

Bugungi kunda mualliflik huquqlarini himoya qilish borasida dunyo bo'ylab ko'plab hamkorliklar amalga oshirilmoqda va ushbu harakatlar o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda.

Hozirda ilm-fan, adabiyot va san'at rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri mualliflarning intellektual faoliyati natijalariga bo'lgan mutlaq huquqlarini tan olishdir. Muallif yaratgan ijodiy faoliyat natijalarni huquqiy tan olish va himoya qilinish, shuningdek unga ushbu asarlardan foydalanish, tasarruf etish va undan daromad olish huquqlarini ta'minlash intellektual faoliyat natijalaridan jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Ayrim mamlakatlarning mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlari ushbu mamlakat fuqarolari tomonidan yaratilgan asarlarni shuning ushbu mamlakatda nashr etilgan asarlarni ham himoya qiladi. Ammo mualliflik huquqi haqidagi milliy qonunchilik normalari xorijiy mualliflarning asarlarini huquqiy himoya qilmaydi (asar birinchi marta ushbu mamlakatda nashr etilgan hollar bundan mustasno). Ayrim davlatlar tomonidan chet el mamlakatlarida o'z fuqarolarining mualliflik huquqlarini himoya qilish uchun xalqaro shartnoma tuzish istagi ham mavjud. Chunki, mualliflik huquqi intellektual mulkning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Xo'sh xalqaro hamkorlik o'zi nega butun dunyo uchun zarur hisoblanadi? buning asoslari quyidagicha:

- Muallifning nafaqat istiqomat qilayotgan mamlakati balki, butun dunyo bo'yicha haq-huquqlarini himoyalashini kafolatlaydi;

- Hamkorlikda ishlash va zaruriy chora-tadbirlarni birgalikda olib borish ish samaradorligini kafolatlaydi;

- Muallif o'z haq-huquqini himoya qilishda o'zga mamlakatda istiqomat qilsa ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'z samarasini ko'rsatadi.

Xalqaro mualliflik huquqini himoya qilishning asosiy vazifasi birinchidan, boshqa xorijiy mamlakatlar mualliflarining huquqlarini himoya qilishda, ikkinchidan, barcha mamlakatlar aholisiga xorijiy adabiy asarlardan erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlashdan iborat. Mualliflar huquqlarini himoya qilishga yetarlicha e'tibor bermaslik ham moddiy, ham ma'naviy-siyosiy yo'qotishlarga olib keladi [1].



Xalqaro mualliflik huquqini himoya qilishning rivojlanish tarixi Mualliflik huquqini himoya qilish so'nggi bir necha asrlarda tipografiyaning vujudga kelishi bilan yanada muhim zaruriyatga aylandi. Ushbu ixtirodan oldin har qanday inshoni tarqatish juda mashaqqatli, uzoq va juda qimmat jarayon edi. Shuning uchun qalbakilashtirish holatlari ham uchramas edi.

Tipografiyaning vujudga kelishi bilan sotuvchilar kitoblarni buyurtma asosida tayyorlamay qo'yishdi. Balki ularni aniq belgilangan nusxada chop eta boshlashdi. Keyinchalik bitta kitob sotuvchisiga ma'lum bir kitobni nashr qilish imtiyozi berildi va bu masala keyinchalik qonun bilan tartibga solindi. Bunday qonun nashriyotga kitobni ko'paytirish va sotish uchun mutlaq huquq berdi. Shuning uchun, muallif uchun nashriyot bilan kelishuv imkoniyatini ega bo'ldi. Shunday qilib kitob nashr qilish huquqi mualliflik huquqining ayrim elementlariga ega bo'ldi hamda asta sekin kengayib bordi. Keyinchalik esa muallifning ijodiy mehnat faoliyatidan foydalanishi mutlaq huquqqa aylandi. Birinchi "mualliflik" qonuni 1710 yilda Angliyada paydo bo'lgan. U "Qirolicha Anna statuti" nomi bilan tanilgan.

Qonun mualliflik huquqining eng muhim tamoyillaridan biri "mualliflik huquqi" tamoyilini belgiladi. Unga ko'ra muallifga nashr etilgan narsalarini himoya qilish huquqini berilgan va asarlarni uning roziligisiz ko'paytirish ta'qiqlangan. 19-asrgacha mualliflik huquqi masalalari xalqaro miqyosda ko'rib chiqilmadi, chunki bunga alohida ehtiyoj yo'q edi.

Asarlardan foydalanishning texnik imkoniyatlari mamlakat hududi bilan cheklangan va shuningdek tijorat bozorlari keng rivojlanmagan edi. Biroq, texnologik inqilob (kino, radio, ovoz yozish va boshqalarning paydo bo'lishi), xalqaro kitob bozorining kengayishi, mualliflik huquqini xalqaro himoya qilish masalasini ko'tarish zaruratini keltirib chiqardi [2].

Xorijiy mualliflarning huquqlarini tan olish va o'z navbatida mahalliy mualliflarning huquqlarini tan olish uchun xorijda ikki tomonlama shartnomalar tuzila boshlandi. Ikki tomonlama kelishuvlar asosida xalqaro himoya tizimini qurish maqsadga muvofiq emasligi aniq. Shu munosabat bilan vaqt o'tishi bilan davlatlar mintaqaviy va ko'p tomonlama konvensiyalarni tuzishga murojaat qila boshladilar.

Xalqaro mualliflik huquqining hamkorlikda asosiy qoidalari. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti ta'rifiga ko'ra, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar huquqiy tushuncha va vositalar bo'lib, ular o'z asarlarida mualliflarning huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish bilan birga, xalqlarning madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Mualliflik huquqi to'g'risidagi shartnomasi turli madaniy sheriklarning hissalarini va huquqlarini va ular bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni namoyish etishda muhim rol o'ynaydi [3].

Mualliflik huquqini himoya qilish obyektlari odatda adabiy va san'at asarlari, ya'ni adabiyot va san'at sohasidagi original asarlar hisoblanadi. Bunday asarlarning ifodalangan shakli so'zlar, ramzlar, musiqa, rasmlar, uch o'lchamli ob'ektlar yoki bunday shakllarning kombinatsiyasi (masalan, opera yoki kino) bo'lishi mumkin.



Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda intellektual mulk muhofazasi yo'nalishi amaliy va nazariy jihatdan sohadagi xalqaro hujjatlar me'yorlari asosida tartibga solingan bo'lib, milliy qonunlarimizdagi intellektual mulk ob'ektlarining ekspertizasi bilan bog'liq jihatlar Butunjahon intellektual mulk tashkilotining xalqaro konvensiya va shartnomalari hamda Jahon savdo tashkilotining Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo'yicha bitimi (TRIPS) bitimi talablariga moslashtirilgan [4].

Mamlakatimiz xalqaro hamkorlik yo'nalishida ham intellektual mulk bilan bog'liq siyosatni asosiy ustuvor masalalar sifatida olib bordi. Masalan, 1995-yilda O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish bo'yicha ishlarni boshlab yubordi. Ahamiyatli jihati, 2000-yillarga kelib aynan JSTning TRIPS bitimi normalari nuqtai nazaridan intellektual mulk sohasiga yangi qonun ("Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida"gi) hamda mavjud normativ-huquqiy hujjatlar yangi tahrirda qabul qilindi ("Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi) [5].

Xulosa. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo bo'lishi mualliflik huquqi sohasida sust bo'lgan tabiiy qarish va yangilanish jarayonlarining inqilobiga olib keldi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlar ekstraterritoriallikka ega emas, ya'ni maxsus xalqaro shartnomalar mavjud bo'lmaganda, bir davlat ichida tan olingan huquqlar boshqa davlatlar uchun mavjud emas [6]. Shunday qilib, ko'rib chiqilayotgan ijtimoiy munosabatlarning tarixi va evolyutsiyasining o'zi ularni davlatlararo darajada tartibga solish va himoya qilishni talab qiladi, chunki normativ-huquqiy hujjatlarni birlashtirish va tizimlashtirish turli mamlakatlarning huquq tizimlaridagi farqlar tufayli talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Богатова А. Соглашения в области охраны авторских прав // Интеллектуальная собственность. 1997. № 7-8.
4. Юлдашов А. Интеллектуал мулк бўйича миллий стратегияларнинг аҳамияти ва бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкilotининг бу борада тутган ўрни //юрис т ахборотномаси. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 53-59.
3. ВІМТ муаллифлик ҳуқуқи шартномаси (Женева, 1996 йил 20 декабр). WІРО расмий нашри № 226 (R). Женева. 1998 йил.
4. Юлдашов А., Чориев М. Договорно-правовые отношения в области авторского права и ответственности за нарушение авторского права: национальный и зарубежный опыт //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/с. – С. 511-522.
5. Юлдашов А. А. Необходимость участия Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах в области интеллектуальной собственности //Электронный инновационный вестник. – 2021. – №. 1. – С. 18-20.



6. Юлдашов А. Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулк, алоқа ва ахборот соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда муаллифлик ҳуқуқини муҳофаза қилишга доир нормаларни такомиллаштириш масалалари //Юрист ахборотномаси. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 58-64.